


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil uchun Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 71 560,4 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda 6,6 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilga nisbatan 109,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,9 % ga yetdi.

2024- yil uchun Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

| | Mlrd so'm | | O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da |
|--|-----------------|-----------------|--|
| | 2023- yil | 2024- yil | |
| I. YAHM, jami | 61 242,6 | 71 560,4 | 106,6 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 59 164,8 | 69 968,4 | 106,6 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 2 077,8 | 1 592,0 | 106,8 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 59 164,8 | 69 968,4 | 106,6 |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 22 148,2 | 24 460,8 | 102,7 |
| sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 16 957,1 | 20 808,8 | 109,3 |
| sanoat | 11 315,0 | 13 906,3 | 106,4 |
| qurilish | 5 642,1 | 6 902,5 | 114,9 |
| xizmatlar | 20 059,5 | 24 698,8 | 108,6 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 7 552,4 | 9 258,2 | 112,1 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 3 108,2 | 3 901,3 | 111,0 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 9 398,9 | 11 539,3 | 105,0 |

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 34 729,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,8 % ga yuqoridir.

2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

| | 2023- yil | 2024- yil |
|---|--------------|--------------|
| I. YAHM, jami | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 96,6 | 97,8 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 3,4 | 2,2 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 37,4 | 35,0 |
| sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 28,6 | 29,8 |
| sanoat | 19,1 | 19,9 |
| qurilish | 9,5 | 9,9 |
| xizmatlar | 34,0 | 35,2 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 12,8 | 13,2 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,3 | 5,6 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 15,9 | 16,4 |




2024- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 35,0 % ni, sanoat tarmog‘i 19,9 % ni, qurilish 9,9 % ni va xizmatlar sohasi 35,2 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2023- yilda – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,2 f.p. (2023- yilda – 1,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,4 f.p. (2023- yilda – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,8 f.p. (2023- yilda – 1,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 102,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 35,0 %), sanoatda – 106,4 % (19,9 %), qurilishda – 114,9 % (9,9 %), xizmatlar sohasida – 108,6 % ni (35,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,1 % (13,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,0 % (5,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,0 % dan (16,4 %) iborat bo'ldi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yilda YAHM deflyatori indeksi 2023- yildagi narxlarga nisbatan 109,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 115,5 % va xizmatlarda – 113,4 % qayd etildi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yil uchun kichik tadbirkorlik 51 085,5 mlrd so‘mni tashkil etdi (2023- yilda – 42 892,1 mlrd so‘m). YAHMdagi ulushi 73,0 % ni (2023- yilda – 72,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

2023-2024- yillar uchun kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

Hajmi, mlrd so‘m

Ulushi, % da

2023- yil

42 892,1

72,5 %

2024- yil

51 085,5

73,0 %

